2026-yil
9(2)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(2)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Boboyeva Sayyora Boboradjabovna, psixologiya fanlari doktori, professor, Tojikiston
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

Turaxonov Abdukarim Eshkuziyevich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

UDK: 316.356.2:37.015.3



Raximova Dilbar Muxitdinovna,
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsent v.b., psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik va pedagogik jihatlari, shuningdek, pedagog-psixologlarning yoshlarda oilaviy munosabatlarga psixologik tayyorlikni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Oilaning jamiyat hayotidagi ahamiyati, oilaviy munosabatlarning barqarorligi, er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar, mas'uliyat, emotsional madaniyat hamda yoshlarni oilaviy rollarni bajarishga tayyorlash masalalari yoritilgan. Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma'naviy merosi, shuningdek, G'arb falsafiy-psixologik tafakkurida shaxsning axloqiy kamoloti, iroda, mas'uliyat va shaxslararo munosabatlarga oid qarashlar tahlil qilingan. Ilmiy manbalar tahlili asosida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida tizimli psixologik-pedagogik hamrohlikni yo'lga qo'yish zarurati asoslangan. Pedagog-psixolog faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida psixologik tayyorlikni diagnostika qilish, kommunikativ madaniyatni shakllantirish, emotsional o'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirish, nizolarning oldini olish, oilaviy majburiyatlarga mas'uliyatli munosabatni tarkib toptirish hamda konstruktiv muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish belgilangan. Yoshlarni oilaviy hayotga maqsadli psixologik-pedagogik tayyorlash psixologik jihatdan barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli oilalarni shakllantirishning muhim sharti ekanligi haqida xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: oila, oilaviy hayot, yoshlar, pedagog-psixolog, psixologik tayyorlik, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, oilaviy munosabatlar, emotsional madaniyat, ma'naviy qadriyatlar, mas'uliyat.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГОВ-ПСИХОЛОГОВ В ПОДГОТОВКЕ МОЛОДЁЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. В статье рассматриваются социально-психологические и педагогические аспекты подготовки молодежи к семейной жизни, а также роль педагога-психолога в формировании психологической готовности молодых людей к семейным отношениям. Анализируются значение семьи в жизни общества, вопросы устойчивости семейных отношений, межличностного взаимодействия супругов, ответственности, эмоциональной культуры и подготовки молодежи к выполнению семейных ролей. Особое внимание уделяется научному наследию восточных мыслителей, а также отдельным положениям зарубежной философско-психологической мысли, связанным с нравственным развитием личности, волей, ответственностью и межличностными отношениями. На основе анализа научных источников обосновывается необходимость системного психолого-педагогического сопровождения молодежи в процессе подготовки к семейной жизни. Раскрываются основные направления деятельности педагога-психолога: диагностика психологической готовности, формирование коммуникативной культуры, развитие эмоциональной саморегуляции, профилактика конфликтов, формирование ответственного отношения к семейным обязанностям и развитие навыков конструктивного взаимодействия. Делается вывод о том, что целенаправленная подготовка молодежи к семейной жизни является важным условием формирования психологически устойчивой и социально ответственной семьи.

Ключевые слова: семья, семейная жизнь, молодежь, педагог-психолог, психологическая готовность, социальная психология, этнопсихология, семейные отношения, эмоциональная культура, духовные ценности, ответственность.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF EDUCATIONAL PSYCHOLOGISTS IN PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE

Annotation. This article examines the socio-psychological and pedagogical aspects of preparing young people for family life and analyzes the role of educational psychologists in developing psychological readiness for family relationships. The study considers the social significance of the family, the stability of family relationships, interpersonal interaction between spouses, responsibility, emotional culture, and young people's preparation for family roles. Particular attention is paid to the intellectual heritage of Eastern scholars and selected ideas from Western philosophical and psychological thought concerning moral development, will, responsibility, and interpersonal relationships. Based on the analysis of scientific sources, the article substantiates the need for systematic psychological and pedagogical support for young people preparing for family life. The main areas of an educational psychologist's work are identified, including psychological assessment, development of communication culture, emotional self-regulation,

conflict prevention, formation of responsible attitudes toward family responsibilities, and development of constructive interpersonal interaction skills. The article concludes that purposeful psychological and pedagogical preparation of young people for family life is an important condition for developing psychologically stable and socially responsible families.

Keywords: family, family life, youth, educational psychologist, psychological readiness, social psychology, ethnopsychology, family relationships, emotional culture, spiritual values, responsibility.

Kirish. Oila inson hayotining eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Insonning dastlabki ijtimoiy tajribasi, o‘zaro munosabatlar haqidagi tasavvurlari, mehr-muhabbat, hurmat, mas’uliyat, hamkorlik va g‘amxo‘rlik kabi qadriyatlari, avvalo, oilaviy muhitda shakllanadi. Shu sababli yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash faqat nikoh qurishga tayyorgarlik ko‘rish bilan cheklanmay, balki shaxsning oilaviy munosabatlarda o‘z o‘rnini anglay olishi, mas’uliyatni qabul qilishi, o‘z hissiyotlarini boshqarishi, turli fikr va ehtiyojlarni hurmat qilishi hamda muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topa olishini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi ijtimoiy, pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki oilaning barqarorligi nafaqat uning moddiy sharoitlari, balki oila a’zolarining psixologik tayyorgarligi, kommunikativ madaniyati, o‘zaro hurmati, hissiy barqarorligi va muammolarni birgalikda hal qila olish qobiliyatiga ham bog‘liq. Oila va oilaga yo‘naltirilgan siyosat hamda dasturlar jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlash, bolalar va yoshlarning farovonligini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy tengsizlikning oldini olish kabi ko‘plab vazifalar bilan chambarchas bog‘liq.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ham oila, bolalar va yoshlarning farovonligini ta’minlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish hamda inson rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Oila bolaning rivojlanishi va ijtimoiylashuvida asosiy muhit bo‘lib, ota-onalar va tarbiyachilar bolaning xavfsizligi, mehrga bo‘lgan ehtiyoji, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligi uchun muhim mas’uliyatni bajaradi.

Shu nuqtayi nazardan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni ta’lim va tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qarash maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonda pedagog va psixologlarning hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Pedagog yoshlarning bilim, dunyoqarash va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga ko‘maklashsa, pedagog-psixolog ularning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda psixologik tayyorgarlik, emotsional barqarorlik, muloqot va nizolarni konstruktiv boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda pedagog-psixologlarning o‘rni va ahamiyatini ilmiy-

nazariy jihatdan yoritish hamda psixologik-pedagogik tayyorgarlikning asosiy yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: oilaning shaxs va jamiyat hayotidagi psixologik-ijtimoiy funksiyalarini tahlil qilish; yoshlarning oilaviy hayotga psixologik tayyorgarligi mazmunini aniqlash; Sharq va G‘arb mutafakkirlarining oila, axloq, shaxs kamoloti va insonlararo munosabatlarga oid qarashlarini o‘rganish; pedagog-psixologning yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi asosiy faoliyat yo‘nalishlarini belgilash; oilaviy munosabatlarda muhim bo‘lgan kommunikativ, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarni aniqlash.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy yo‘nalishda olib borilib, ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, pedagogika va shaxs psixologiyasiga oid ilmiy qarashlar o‘zaro qiyoslandi. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari merosida aks etgan oilaviy va axloqiy qadriyatlar zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘un holda tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, faoliyat yondashuvi, ijtimoiy-psixologik yondashuv hamda oilani yaxlit ijtimoiy tizim sifatida o‘rganish tamoyillari tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili. Oila va shaxsning rivojlanishi masalasi psixologiya, pedagogika, falsafa va sotsiologiya fanlarining kesishgan nuqtasida o‘rganib kelinadi. V.M. Karimovaning psixologik tadqiqotlarida shaxsning psixologik holati, sog‘lom turmush tarzi va ruhiy jarayonlarni boshqarish masalalariga e’tibor qaratiladi [1]. Mazkur yondashuv oilaviy munosabatlarda shaxsning emotsional holati, o‘zini boshqarishi va psixologik salomatligi muhim ahamiyatga ega ekanligini anglash imkonini beradi.

A. Kapelinning psixologik testlar va diagnostik metodikalarga oid ishlarida shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash masalalariga katta e’tibor qaratilgan [2]. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida diagnostika usullaridan foydalanish ularning muloqotga kirishuvchanligi, emotsional barqarorligi, nizoli vaziyatlarga munosabati va o‘zini baholash xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

A.V. Karpov refleksivlikni shaxsning o‘z faoliyati va ichki holatini anglash hamda tahlil qilish qobiliyati sifatida tadqiq etadi [3]. Mazkur yondashuv oilaviy hayotga tayyorgarlik nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Chunki o‘z xatti-harakati, hissiyoti va qarorlarini tahlil qila oladigan shaxs oila doirasida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga nisbatan mas’uliyatliroq munosabatda bo‘lishi mumkin.

R.A. Muxina oilaning shaxs rivojlanishidagi o‘rnini tahlil qilib, oila muhitining insonning individual rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi [4]. Ushbu qarash yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaning faqat biologik yoki maishiy birlik emas, balki shaxs rivojlanishining muhim ijtimoiy-psixologik muhiti ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalqining ma’naviy merosida ham oila, farzand tarbiyasi, er-xotin munosabatlari, mehr-oqibat va insoniy fazilatlar masalasiga alohida e’tibor berilgan. M.M. Xayrullayev tomonidan tahlil qilingan Sharq mutafakkirlari merosida insonparvarlik, axloqiy yetuklik, Vatanga va yaqinlarga sadoqat kabi qadriyatlar muhim o‘rin egallaydi [5]. Mazkur qadriyatlar bugungi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ma’naviy-psixologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Yoshlarning psixologik tayyorgarligi masalalari bo‘yicha V.V. Ivakina tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda talaba-qizlarda onalikka psixologik tayyorgarlikni shakllantirish masalalari yoritilgan [6]. Bu yo‘nalish yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaviy rollar, ota-onalik mas’uliyati va psixologik tayyorgarlik masalalarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.

P.I. Ivanovning umumiy psixologiyaga oid ilmiy qarashlari esa shaxsning psixik jarayonlari, faoliyati va rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [7]. Ibn Sinoning “Tadbiri manzil” asarida esa oila va xonadonni oqilona boshqarish, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar hamda oilaviy hayotning ma’naviy-axloqiy jihatlariga oid qarashlar mavjud [8].

Y. Ilyazovaning o‘smirlarning me’yoriy xulq-atvorga tayyorligi masalasiga bag‘ishlangan tadqiqoti yoshlarning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirish, me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonlarini tushunishda muhimdir [9]. Bu esa oilaviy hayotga tayyorgarlikni faqat nikohga tayyorlash emas, balki ijtimoiy mas’uliyat va me’yoriy xulq-atvorni shakllantirish jarayoni sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Oila va oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlikning mazmuni

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tushunchasi keng mazmunga ega bo‘lib, u shaxsning nikoh va oilaviy munosabatlar haqidagi bilimlari, qadriyatlari, emotsional tayyorgarligi, kommunikativ ko‘nikmalari va mas’uliyat hissini qamrab oladi. Oilaviy hayotga tayyor shaxs o‘zining nafaqat huquqlarini, balki oiladagi majburiyatlarini ham anglay olishi, boshqa oila a’zolarining ehtiyoj va manfaatlarini hisobga olishi, kelishmovchiliklarni zo‘ravonlik yoki bosim orqali emas, muloqot va kelishuv asosida hal qilishga intilishi lozim.

Psixologik tayyorgarlikning muhim komponentlaridan biri — emotsional yetuklikdir. Yosh inson o‘z his-tuyg‘ularini anglay olishi, ularni nazorat qila olishi va boshqa insonning emotsional holatini tushunishi oilaviy munosabatlarning barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, oilada turli qarashlar, ehtiyojlar va xarakter xususiyatlari to‘qnash kelishi tabiiy. Bunday vaziyatlarda emotsional o‘zini boshqarish va konstruktiv muloqot qilish ko‘nikmasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy hayotga tayyorgarlikning yana bir muhim jihati — mas’uliyatlilikdir. Oilaviy munosabatlarda qarorlar ko‘pincha bir kishining emas, bir necha shaxsning manfaatlariga ta’sir qiladi. Shu sababli yoshlarni qaror qabul qilish, o‘z xatti-harakatining oqibatlarini oldindan baholash va majburiyatlarni bajarishga tayyorlash zarur.

Sharq mutafakkirlari merosida oilaviy munosabatlar masalasi

Sharq mutafakkirlari merosida oila, farzand tarbiyasi, insoniy munosabatlar va axloqiy kamolot masalalari alohida o‘rin egallaydi. Islom manbalarida ham oila jamiyatning muhim tayanchi sifatida qaralib, er-xotin o‘rtasidagi hurmat, mehr-muhabbat, mas’uliyat va farzand tarbiyasiga katta ahamiyat beriladi.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy merosida insonlar o‘rtasidagi mehr-muhabbat, halollik, mehnatsevarlik, adolat, yaxshi muomala va odob-axloq masalalari keng yoritilgan. “Al-Jome’ as-Sahih” hamda “Al-Adab al-Mufrad” kabi asarlar insonning oila va jamiyatdagi xulq-atvorini ma’naviy-axloqiy jihatdan tartibga soluvchi qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi [5]. Bu qarashlar yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda o‘zaro hurmat va mas’uliyat tamoyillarining ahamiyatini ko‘rsatadi.

Abu Iso at-Termiziyning “Ash-Shamoil an-Nabaviya” asarida ham insonning axloqiy fazilatlari, muomala madaniyati va yuksak insoniy sifatlariga oid ma’lumotlar jamlangan. Ushbu merosni zamonaviy psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan o‘rganish yoshlarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirish va ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashda muhim metodologik manba bo‘lishi mumkin [5].

Abu Nasr Forobiy inson kamoloti, baxt-saodat va axloqiy fazilatlarni jamiyat hayotining muhim shartlari bilan bog‘lagan. Uning qarashlarida insonning komillikka intilishi, ilm-ma’rifat, ezgulik va o‘zaro hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Ushbu g‘oyalarni oilaviy munosabatlarga tatbiq etadigan bo‘lsak, oiladagi o‘zaro hurmat, hamkorlik va mehr-oqibat oilaviy farovonlikning muhim psixologik omillari sifatida namoyon bo‘ladi.

Ibn Sinoning “Tadbiri manzil” asari ham oilaviy hayotni oqilona tashkil etish, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar va tarbiya masalalarini o‘rganishda muhim manbalardan biridir [8]. Uning qarashlarida oiladagi munosabatlarni aql, tarbiya va mas’uliyat asosida tashkil etish g‘oyasi alohida ahamiyatga ega.

G‘arb falsafiy-psixologik tafakkurida shaxsning yetukligi va oilaviy munosabatlar

Shaxsning psixologik yetukligi haqidagi qarashlar qadimgi yunon falsafasidan boshlab rivojlanib kelgan. Aristotel insonning ruhiy hayoti, iroda, tafakkur, hissiyot va xulq-atvorining o‘zaro aloqadorligiga e’tibor qaratgan. Uning ruh va tana, tafakkur va xulq-atvor haqidagi qarashlari keyingi psixologik tafakkur rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Shaxsning yetukligi masalasida iroda va o‘zini boshqarish tushunchalari ham muhim o‘rin egallaydi. Inson o‘z istak va hissiyotlarini boshqara olishi, muayyan qarorni ongli ravishda qabul qilishi va uning oqibatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi psixologik yetuklikning muhim belgilaridan hisoblanadi. Oilaviy hayot sharoitida esa mazkur sifatlarning ahamiyati yanada ortadi.

Frensis Bekon, Tomas Gobbs va Jon Lokk kabi mutafakkirlar insonning tajribasi, hissiyotlari, ehtiyojlari va ijtimoiy muhitining shaxs shakllanishidagi roliga e’tibor qaratganlar. Rene Dekart esa insonning sezgi, tasavvur va iroda kabi psixik jarayonlariga alohida ahamiyat bergan [7]. Mazkur qarashlar zamonaviy

psixologiyada shaxsning oilaviy munosabatlarga tayyorligini baholashda uning individual xususiyatlari, hissiy holati va o‘zini boshqarish qobiliyatini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Pedagog-psixologning yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi asosiy vazifalari

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida pedagog-psixologning faoliyati bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim. Birinchi navbatda, psixologik diagnostika amalga oshiriladi. Bunda yoshlarning o‘zini anglash darajasi, muloqot xususiyatlari, emotsional barqarorligi, konfliktli vaziyatlarga munosabati, mas’uliyat hissi va oilaviy qadriyatlari o‘rganiladi. Diagnostik jarayonning maqsadi yoshga “tayyor hukm” chiqarish emas, balki uning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan psixologik ehtiyojlarni aniqlashdan iborat bo‘lishi kerak [2].

Ikkinchi yo‘nalish — psixologik ma’rifat. Yoshlar oilaviy munosabatlarning psixologik qonuniyatlari, samarali muloqot, oiladagi rollar, nizolarning sabablari, emotsional ehtiyojlar va mas’uliyat masalalari bo‘yicha ilmiy asoslangan ma’lumotlarga ega bo‘lishlari zarur. Bunday bilimlar yoshlarning oilaviy hayot haqidagi stereotipik va biryoqlama tasavvurlarini kamaytirishga yordam beradi.

Uchinchi yo‘nalish — kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. Oiladagi ko‘plab muammolarning kelib chiqishida bir-birini tinglamaslik, his-tuyg‘ularni to‘g‘ri ifoda eta olmaslik, muammoli vaziyatni noto‘g‘ri talqin qilish kabi kommunikativ omillar muhim rol o‘ynashi mumkin. Shu sababli pedagog-psixolog mashg‘ulotlar davomida faol tinglash, “men-xabar”lardan foydalanish, konstruktiv savol berish, fikrni aniq ifodalash va kelishmovchilikni muzokara orqali hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchi yo‘nalish — emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish. Oilaviy munosabatlarda stress, kelishmovchilik, charchoq yoki turli hayotiy muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Bunday vaziyatlarda shaxs o‘z emotsiyalarini anglay olishi va ularni konstruktiv tarzda boshqarishi muhimdir. Psixologik treninglar, vaziyatli mashqlar va refleksiv topshiriqlar ushbu ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Beshinchi yo‘nalish — oilaviy nizolarning psixologik profilaktikasi. Yoshlar nizoni munosabatlarning tugashi sifatida emas, balki to‘g‘ri boshqarilganda o‘zaro tushunishni kuchaytiruvchi jarayon sifatida anglashlari zarur. Shu bilan birga, psixologik profilaktika doirasida zo‘ravonlik, kamsitish, nazoratning haddan tashqari kuchayishi va boshqa xavfli xulq shakllarini oqlamaslik hamda bunday holatlarda yordam so‘rashning ahamiyatini tushuntirish lozim.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik modeli

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni shartli ravishda to‘rt o‘zaro bog‘liq bosqich asosida tashkil etish mumkin. Birinchi bosqich — **o‘zini anglash**. Bu bosqichda yosh o‘zining xarakteri, qadriyatlari, ehtiyojlari, kuchli va rivojlantirilishi

zarur bo‘lgan jihatlarini anglaydi. Refleksivlik shaxsning o‘z faoliyati va ichki holatini tahlil qilish qobiliyati sifatida bu jarayonda muhim o‘rin tutadi [3].

Ikkinchi bosqich — **munosabatlar haqidagi bilimlarni shakllantirish**. Unda oila, nikoh, ota-onalik, o‘zaro hurmat, mas’uliyat, muloqot va oilaviy rollarga oid psixologik bilimlar beriladi.

Uchinchi bosqich — **amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish**. Bu bosqichda yoshlar muloqot, muzokara, konfliktlarni boshqarish, emotsional o‘zini nazorat qilish va birgalikda qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni mashq qiladilar.

To‘rtinchi bosqich — **refleksiya va mustaqil rivojlanish**. Yosh o‘zining oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasini baholaydi, mavjud qiyinchiliklarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo‘yicha individual rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi.

Mazkur modelda pedagog-psixologning roli faqat ma’lumot berish bilan cheklanmaydi. U yoshning individual xususiyatlarini hisobga oluvchi, maslahat beruvchi, psixologik xavfsizlikni ta’minlovchi va zarur hollarda tegishli mutaxassislarga yo‘naltiruvchi subyekt sifatida faoliyat olib boradi.

Oilaviy hayotga tayyorgarlikda etnopsixologik yondashuv

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy va madaniy xususiyatlarni hisobga olish muhim. Har bir jamiyatda oila, nikoh, ota-onalik, farzand tarbiyasi va qarindoshlik munosabatlari bilan bog‘liq muayyan qadriyatlar mavjud. Shu sababli psixologik-pedagogik dasturlar universal psixologik qonuniyatlar bilan bir qatorda mahalliy madaniy muhitni ham hisobga olishi kerak.

Biroq milliy qadriyatlarni o‘rganishda ularni zamonaviy inson huquqlari, o‘zaro hurmat, shaxsiy daxlsizlik, teng mas’uliyat va psixologik xavfsizlik tamoyillari bilan uyg‘un holda talqin qilish muhim. Oilaviy tarbiya va munosabatlarda an’ana va zamonaviy psixologik yondashuvlar bir-birini to‘ldirishi mumkin.

Muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasida faqat ma’naviy-axloqiy targ‘ibot bilan cheklanib qolish yetarli emas. Yosh inson oilaning qadri, oila a’zolariga hurmat va mas’uliyat haqida bilimga ega bo‘lishi bilan birga, ushbu qadriyatlarni real hayotiy vaziyatlarda namoyon qilish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi kerak.

Shu jihatdan pedagog-psixolog faoliyatida nazariy ma’lumotlar bilan amaliy mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirish muhim. Masalan, oilaviy nizolar bo‘yicha nazariy tushuntirishdan so‘ng vaziyatli topshiriqlar, rolli o‘yinlar, guruhiy muhokamalar va refleksiv mashqlarni tashkil etish yoshlarning o‘rgangan bilimlarini amaliy ko‘nikmaga aylantirishga yordam beradi.

Shuningdek, oilaviy hayotga tayyorgarlikni faqat nikohdan oldingi qisqa muddatli tadbir sifatida emas, balki uzluksiz psixologik-pedagogik jarayon sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur tayyorgarlik o‘smirlik davridan boshlab shaxsiy mas’uliyat, muloqot madaniyati, emotsional savodxonlik, sog‘lom chegaralar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish orqali bosqichma-bosqich olib borilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy barqarorligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'p qirrali pedagogik-psixologik jarayondir. Oila shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviy rivojlanishi va psixologik farovonligining muhim muhiti hisoblanadi. Shu sababli oilaning barqarorligi va farovonligini ta'minlashda yoshlarning oilaviy hayotga qanchalik puxta tayyorlanganligi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlikni shaxsning o'zini anglash, emotsional yetuklik, kommunikativ kompetensiya, mas'uliyatlilik, nizolarni konstruktiv boshqarish, oilaviy qadriyatlarni anglash va ota-onalik mas'uliyatiga tayyorlik kabi komponentlar asosida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Pedagog-psixolog ushbu jarayonda diagnostika, psixologik ma'rifat, trening, maslahat, profilaktika va refleksiya kabi faoliyat shakllaridan kompleks foydalanishi lozim. Ayniqsa, yoshlarning real hayotiy vaziyatlarda qaror qabul qilish, o'z hissiyotlarini boshqarish, sherigini tinglash va kelishmovchiliklarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq mutafakkirlari merosidagi mehr-oqibat, hurmat, mas'uliyat, halollik va insonparvarlik kabi qadriyatlarni zamonaviy psixologik bilimlar bilan uyg'unlashtirish samarali natija berishi mumkin. Bunda milliy qadriyatlarni shaxsning huquq va erkinliklari, o'zaro hurmat, psixologik xavfsizlik va teng mas'uliyat tamoyillari bilan uyg'un holda talqin qilish muhim.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, ta'lim muassasalarida yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlashga qaratilgan maxsus ma'rifiy va trening dasturlarini ishlab chiqish; ikkinchidan, pedagog-psixologlar uchun oilaviy psixologiya va nikoholdi maslahat bo'yicha metodik ta'minotni kuchaytirish; uchinchidan, yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligini baholashda psixologik diagnostika vositalaridan foydalanish; to'rtinchidan, ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning hamkorligini kuchaytirish; beshinchidan, oilaviy munosabatlarda sog'lom muloqot, emotsional savodxonlik va konfliktlarni konstruktiv boshqarish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni keng joriy etish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga kompleks yondashish kelajakdagi oilalarning psixologik barqarorligi, oila a'zolari o'rtasidagi sog'lom munosabatlar va farzand tarbiyasi sifatini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin. Bu jarayonda pedagog-psixologning vazifasi yoshlarni muayyan qaror yoki oilaviy modelga yo'naltirish emas, balki ularda ongli tanlov, mas'uliyat, o'zaro hurmat va sog'lom munosabatlarni qurish uchun zarur psixologik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Salomatlik psixologiyasi yoxud sog‘lom bo‘lish uchun ruhiyatni boshqarish sirlari. – Toshkent, 2025. – 8-b.
2. Карелин А. Большая энциклопедия психологических тестов**.** – М.: Эксмо, 2007. – С. 292–293.
3. Карпов А.В. Рефлексивность. – 2003. – Т. 24. – № 5. – С. 45–57.
4. Мухина Р.А. Проблема семьи и индивидуального развития // Развитие личности. – 2011. – № 7. – С. 111–120.
5. Xayrullayev M.M. Ma’naviyat yulduzlari**.** – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. – 54–57-b.
6. Ивакина В.В. Формирование у студенток психологической готовности к материнству: дисс. … канд. психол. наук. – 2006.
7. Ivanov P.I. Umumiy psixologiya**.** – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – 535–544-b.
8. Ibn Sino. Tadbiri manzil**.** – 44-b.
9. Ильязова Ю. Готовность подростков к нормативному поведению // Психология и педагогика. – 2011. – № 6. – С. 111–118.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(2)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694